

TILNING NOMINATIV VA FIGURATIV FUNKSIYALARI

Akbar Rustam o'g'li Idiyev
(SamDCHTI "Ingliz filologiyasi" kafedrasida o'qituvchisi.)

Boburjon Ilhomjon o'g'li Uktamov
(Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi)

Annotatsiya: So'zlarning nominativ va figurativ ma'nolari haqida gap ketganda ma'lum bir so'zning o'z ma'nosi va shu so'zning ko'p ma'noliligi ya'ni polisemantik tabiatliligi nazarda tutiladi. Ushbu tezisda tilning nominativ va figurativ funksiyalari nazariy va amaliy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: til, funksiya, tilshunoslik, nominativ ma'no, figurativ ma'no, polisemiya, monosemiya.

Abstract: When it comes to the nominative and figurative meanings of words, it is implied that a particular word has its own meaning and that this word has polysemantic meanings. In this thesis, the nominative and figurative functions of the language are analyzed theoretically and practically.

Key words: language, function, language studies, nominative meaning, figurative meaning, polisemy, monosemy.

So'zning leksik ma'nolari avvalo, bosh ma'no va hosila ma'no deb farqlanadi. Boshqa bir leksik ma'noning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan ma'no bosh ma'no, ya'ni to'ng'ich ma'no deyiladi. Bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan leksik ma'no hosila ya'ni nisbiy bosh ma'no hisoblanadi. Masalan: "ochiq" leksemasining bosh ma'nosi- "berklanmagan" (yopiq leksemasiga antonim bo'ladigan so'z): ochiq eshik, kitobning betini ochiq qoldir, kabi. Ochiq so'zining hosila ya'ni nisbiy bosh ma'no anglatuvchi so'zlarga misol qilib "ochiq gapirmoq" (tushunarli, aniq qilib gapirmoq), "ochiq odam" (xushmuomila odam) kabilarni keltirish mumkin¹.

So'zlarning nominativ va figurativ ma'nolari haqida gap ketganda ma'lum bir so'zning o'z ma'nosi va shu so'zning ko'p ma'noliligi ya'ni polisemantik tabiatliligi nazarda tutiladi.

Nominativ ma'no to'g'ridan- to'g'ri voqelik, harakat, holat yoki belgiga qaratilgan leksik ma'nodir. Bunday leksik ma'noda insonning ichki hayot, undagi ijtimoiy tushuncha ham o'z aksini topadi.² V.Vinogradov polisemantik so'zlarning semantik tarkibida nominativ so'zlarning tutgan o'rni haqida to'xtalib "...erkin nominativ ma'no bir so'zda bir, agar ulardan bir yoki ikkita asosiy ma'nodan kelib chiqqan bo'lsa, undan ortiq bo'lishi ham mumkin", degan gapni qayd etadi. O'zbek tili faktlari asosidagi tahlillarimiz ham uning qarashlarini asoslab ko'rsatadi. Masalan, *etak* so'zi tahlil etilganda uning barcha leksik ma'nolariga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Aylana chet joy. *Stadion etagi*.

Tugash, quyi joy. *Bog' etagi, daryo etagi*.

Pastki qism, yonbag'ir. *Tog' etagi*.

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) // Toshkent, "Universitet" nashriyoti – 2006. –B.163.

² Mirtojdiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.143.

Kiyimning pastki qismi. *Ko'ylak etagi.*

Fartuk. *Etak taqmoq.*

Bu so'zning birinchi leksik ma'nosi genetik ma'no bo'lib, qolganlari hosila ma'nodir. Biroq, bu besh ma'noning hammasi ham o'z referentini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etadi. Birortasida ham obrazli ifodalash xususiyati yo'q. Shulardan, aytish mumkinki, bir polisemantik so'zning genetik ma'nosi va hosila ma'nolarining hammasi nominativ ma'no bo'ladi.³

Figural ma'no o'z referentini biror nominativ ma'no referentiga qiyoslab, bog'lab, uning belgisini ko'chirib olib obrazli ifoda etuvchi leksik ma'nodir. U mumtoz adabiyotshunoslikda majoziy ma'no deb ham yuritiladi.

Masalan, *Parvoz etish ilmin o'rganar bunda.* (M.Xudoyqulov).

Bu gapda ilm so'zi "sir" figural ma'nosi bilan voqelangan. Ilm so'zining bu hosila ma'nosi figural ma'nodir. Mazkur ma'noni *sir* so'zi orqali ham ifoda etish mumkin edi. Biroq bunda, bir daqiqada egallab olish, keyin mashq bilan ifodalanish tushunilar edi. Bu sir bilishning mashaqqatli jarayoniga olib kelgan. Umuman figurativ ma'nolar ana shunday nominativ ma'no orqali u vositadida ifoda beradi.⁴

Nominativlik hamda figurativlik tushunchalarini badiiy adabiyot bilan bog'laydigan bo'lsak, ko'plab shoir va yozuvchilarimiz o'z asarlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, o'zlarining induvidial o'xshatish va ko'plab metaforalar yaratish bilan bir vaqtda yangi birikmalar orqali nominativlik va figurativlikni aniq hamda takrorlanmas holda o'z asarlarida namoyon etganlar. Ko'p ma'noli so'zlarni minglab ijodkorlar nutqidan o'rgangan holda, omma e'tiboriga tatbiq etish kun sayin ravnaq topib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, T.Ahmadning "*Sog'inch*" she'ridan keltirilgan, muallifning induvidual metaforasiga diqqat qaratadigan bo'lsak:

Saratonning salqin- salqin saharida

Ma'yusgina sag'anadan so'lg'in- so'lg'in,

Beozor termulib turgan, Sog'inch!

Bu yerda sag'ana so'zi o'z ma'nosida qo'llanilmoqda, aslida nominativ ma'nosiga murojaat etsak "*ma'yus*" so'zi, g'amgin va horg'in ko'zlarga nisbatan qo'llaniluvchi hamda ekspressiv bo'yoqdorlikka ega so'z hisoblanadi. Bu o'xshatishda esa shoir sag'anani tinch va qo'zg'almas holatini ta'riflayapti, albatta. Bu o'ziga xos metaforik birikma hosil qilmoqda. Shoir ijodida figurativ ma'nolarga boy ko'plab induvidial birikmalarni uchratish mumkin. Chunonchi, "*Tor ko'chalar*" she'rida keltirilgan "*bedor ko'chalar*" deb qo'llab o'tgan birikmasini tahlil qiladigan bo'lsak, *bedor* so'zi aslida, uyqusiz, tunlarini *bedor* o'tkazadigan insonga nisbatan qo'llaniladi. "*Bedor*" so'zining ko'chalar so'zi bilan birga induvidual birikma hosil qilishi esa ko'chalarning doimo charog'on va nurli bo'lishiga ishora qilmoqda, ya'ni ko'chma ma'noda qo'llanilib, figurativ ma'noni gavdalandirmoqda. Ijodkorning "*Chorbakr*" deb nomlanuvchi she'riy asaridan turli xildagi o'ziga xos metaforalarni topib, bemalol nominativlik hamda figurativlik ma'no munosabatlarini tahlil etsak bo'ladi. Shoirning "*Kechiring, ona!*" deb ataladigan purma'no she'riga nazar solganimizda, beixtiyor quyidagi misralaridan figurativ ma'nolarni anglash qiyin emas.

Siz shamchiroq ekansiz, bilsam,

Toza buloq ekansiz, bilsam,

Shirin tuproq ekansiz, bilsam,

*Sho'r bolangiz kechiring, ona!*⁵

³ Mirtojiev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.144.

⁴ Mirtojiev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.145.

⁵ Toshpo'lat Axmad. Chorbakr // Toshkent. "Yangi asr avlodi" – 2000. –B.32.

Misralarda qo'llanilgan "*shirin tuproq*" hamda "*sho'r bola*" so'zlari, albatta o'z ya'ni nominativ ma'nosidan uzoqlashgan holda, figurativ ma'no kasb etmoqda. Yana e'tibor qaratadigan bo'lsak shirin so'zlari orqali ifodalangan metaforalarida o'ziga xos figurativlik namoyon bo'lishini yana ko'plab she'rlarining ajoyib va takrorlanmas misralarida o'z aksini topgan:

Molalangan yerga kaftimni bossam

*Barmoqlarim tuydi shirin titroqni!*⁶

Ko'rinadiki, yuqoridagi parchalarda o'z aksini topgan "*shirin*" so'zi aslida qand va ta'mi og'izga xush yoqadigan yegulik yoki ne'matlarga nisbatan, tuproqning esa hech qanday shirin ta'mi bo'lmagani singari va shu o'rinda insonga xos bo'lgan hissiy holatni ifodalovchi titroq so'zi bilan gavdalantirishi o'ziga xos mahorat kasb etishi bilan birga figurativlikning yaqqol namunasi bo'lib kelmoqda.

Demak, o'z ma'nosidan ya'ni nominativ ma'nosidan hosil bo'lgan va butunlay boshqa ma'no o'sib chiqara olish xususiyatiga ega bo'lgan, ayni vaqtda o'z ma'nosi bir xil ma'noda, ko'chma ma'nosi turli ma'nolarda qo'llana oladigan polisemantik so'zlar o'z o'rnida figurativ ma'no kasb etadi. Bunda so'zning figural ma'nosi eng oxirgi bosqichda turadi. Undan boshqa ma'no o'sib chiqmaydi. Bu uning o'ziga xos tabiatidir. Genetik (bosh) ma'no esa hech qachon figurativ ma'no bo'la olmaydi. Chunki u so'zning birinchi leksik ma'nosidir. Uni qiyoslash uchun hech qanday ma'no yo'q, so'z shu ma'noga asoslanib yaraladi yoki hosil bo'ladi.⁷

Xullas, leksik ma'nolar o'z referentini bevosita yoki bilvosita ifoda etishiga nominativ ma'no hamda figural ma'no kabi tiplarga bo'linadi. Nominativ ma'no o'z referentini to'g'ridan-to'g'ri ifodalasa, figural ma'no o'z referentini biror nominativ ma'no referentiga qiyosan, uning belgisini ko'chirib olib, obrazli ifoda beradi. Nominativ ma'no ham genetik, ham ham hosila ma'no bo'lgani holda, figural ma'no faqat hosila ma'nolarda kuzatiladi. Figural ma'nodan hosila ma'no ham, yasama ma'no ham yuzaga kelmaydi.⁸

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) // Toshkent, "Universitet" nashriyoti – 2006. –B.163.
2. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.143.
3. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.144.
4. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.145.
5. Toshpo'lat Axmad. Chorbakr // Toshkent. "Yangi asr avlodi" – 2000. –B.32.
6. Toshpo'lat Axmad. Chorbakr // Toshkent. "Yangi asr avlodi" – 2000. –B.72.
7. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.145.
8. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.147

⁶ Toshpo'lat Axmad. Chorbakr // Toshkent. "Yangi asr avlodi" – 2000. –B.72.

⁷ Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.145.

⁸ Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi // Toshkent. "Mumtoz so'z" – 2010. –B.147